

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 946,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 %ga oshganini ko‘rish mumkin. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori miqdori Olmaliq shahrida – 6 343,6 ming so‘mni (160,7 %), Bekobod shahrida – 4 845,4 ming so‘mni (122,8 %), Nurafshon shahrida – 4 608,6 ming so‘mni (116,8 %), Qibray tumanida – 4 166,3 ming so‘mni (105,6 %) tashkil etdi.

Aksincha, Bekobod tumanida – 2 295,0 ming so‘mni (58,1 %), Bo‘ka tumanida – 2 467,1 ming so‘mni (62,5 %), Parkent tumanida – 2 490,5 ming so‘mni (63,1 %), Chinoz tumanida – 2 535,3 ming so‘mni (64,2 %), Piskent tumanida – 2 537,8 ming so‘mni (64,3 %) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichni pasayganligini ko‘rish mumkin.

**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da**
(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

| Hudud nomi | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | O'sish sur'ati, %da |
|--------------------------|----------------------------|----------------------------|------------------------|
| Viloyat bo'yicha: | 3 447,6 | 3 946,9 | 114,5 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Nurafshon | 3 845,2 | 4 608,6 | 119,9 |
| Olmaliq | 5 438,2 | 6 343,6 | 116,6 |
| Angren | 2 723,3 | 3 186,2 | 117,0 |
| Bekobod | 4 030,5 | 4 845,4 | 120,2 |
| Chirchiq | 3 056,2 | 3 947,3 | 129,2 |
| Ohangaron | 3 314,2 | 3 863,5 | 116,6 |
| Yangiyo'l | 2 536,6 | 3 120,9 | 123,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqqo'rg'on | 2 239,2 | 2 723,2 | 121,6 |
| Ohangaron | 3 073,5 | 3 858,6 | 125,5 |
| Bekobod | 1 894,9 | 2 295,0 | 121,1 |
| Bo'stonliq | 2 578,3 | 3 187,5 | 123,6 |
| Bo'ka | 1 996,8 | 2 467,1 | 123,6 |
| Quy Chirchiq | 2 360,3 | 2 678,3 | 113,5 |
| Zangiota | 4 851,9 | 3 353,2 | 69,1 |
| Yuqori Chirchiq | 2 799,8 | 3 408,6 | 121,7 |
| Qibray | 3 366,5 | 4 166,3 | 123,8 |
| Parkent | 2 132,7 | 2 490,5 | 116,8 |
| Piskent | 2 207,3 | 2 537,8 | 115,0 |
| O'rta Chirchiq | 2 709,6 | 3 268,2 | 120,6 |
| Chinoz | 2 102,8 | 2 535,3 | 120,6 |
| Yangiyo'l | 2 750,7 | 3 063,2 | 111,4 |
| Toshkent | 2 533,1 | 2 975,9 | 117,5 |

O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi


**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda**

(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, %da
(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Ish haqi. 2022- yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm):



Ta'lim sohasida ishlovchilar soni 83 481 nafarni tashkil etdi.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 671,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,4 %ga o'sdi.



Sanoat sohasida ishlovchilar soni 113 323 nafarni tashkil etdi.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 072,7 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,5 %ga o'sdi.



Qurilish sohasida ishlovchilar soni 4 149 nafarni tashkil etdi.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 803,9 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 147,4 %ga o'sdi.



Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilar soni 5 171 nafarni tashkil etdi.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 820,3 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,3 %ga o'sdi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilar soni 41 331 nafarni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 594,8 ming so'mga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 98,5 %ni tashkil qildi.



Tashish va saqlash sohasida ishlovchilar soni 3 925 nafarni tashkil etdi.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 146,6 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 150,0 %ga o'sdi.

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**



Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilar soni 2 644 nafarni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 959,4 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,7 %ga o'sdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- maydagi PF-138-son Farmoniga binoan 2022- yil 1- iyundan 920 000 so'mni tashkil etmoqda) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi